

TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Usmonova Shaxrizoda Maxammadjon qizi
Farg'ona Davlat Universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi 21.89B guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uning istiqbollari fikrlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada bugungi kunda respublikamizda amaldagi ta'lim tizimi o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hakllantirib borishga yo'naltirilgan mustaqil fikrlashni pedagogik texnologiyalarga qiyoslash orqali o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va aks ta'sir mahsulidir. Mazkur texnologiya shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayon hisoblanadi. Bunda ta'limning sifatiga ta'lim muassasasi va aniq bir fan o'qituvchisi ma'sul ekanligini hisobga olinib uni amalga oshirishda pedagogik texnologiyalarning ko'plab metodlaridan foydalanish borasidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogika, o'qituvchi, texnologiya, metod, sifat, klaster, yetakchi

Аннотация. В данной статье научно анализируются представления о перспективах использования современных педагогических технологий в образовательном процессе. В статье также обсуждается действующая в стране система образования, которая служит для развития умственных способностей студентов путем сравнения самостоятельного мышления с педагогическими технологиями, направленными на формирование у студентов навыков самостоятельного мышления. Педагогические технологии – это результат воздействия учителя на учащихся в определенных контекстах и противоположный эффект при использовании учебных пособий. Это технология представляет собой процесс, который обеспечивает быстрое формирование личностных качеств. Учитывая тот факт, что за качество образования несет ответственность образовательное учреждение и конкретный учитель предметник, идея по использованию многих методов педагогической технологии при его реализации освещаются.

Ключевые слова: образование, педагогика, педагог, технология, метод, качество, кластер, лидерство.

Annotation. This article scientifically analyzes ideas about the prospects of using modern pedagogical technologies in the educational process. The article also discusses the country's education system, which serves to develop students' mental abilities by comparing independent thinking with pedagogical technologies aimed at developing students' independent thinking skills. Pedagogical technologies are the result of the teacher's influence on students in certain contexts and the opposite

effect when using textbooks. This technology is a process that provides the rapid formation of personal qualities. Given the fact that the educational institution and the specific subject teacher are responsible for the quality of education, ideas on the use of many methods of pedagogical technology in its implementation are highlighted.

Key words: education, upbringing, literacy, teacher, student, lesson, educational effectiveness, qualification requirement

Kirish. Agar biz o'quvchilarni kelajakka tayyorlamoqchi bo'lsak, kechagi o'quv metodlaridan voz kechishimiz zarur, biror bir fanni yoki ma'lumotni ko'r-ko'rona yodlab olishga urinmasligimiz kerak -komputer baribir ko'proq narsani eslab qoladi. Tezroq hisoblashga ham urinmasligimiz ma'qul deb o'ylayman chunki biz uchun buni kompyuter amalga oshiradi. Eng muhimi masalaga kreativ yondashishni o'rganinishimizdadir". Har qanday fanni o'rganishdagi eng asosiy jihat fikrlashdir. Agar o'qituvchi bolaga fikrlashni o'rgata olsa, keyin hamma narsani o'rgata oladi Bizga ma'lumki, amaldagi ta'lim tizimi o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirib borishga yo'naltirilgan. Mustaqil fikrlashni pedagogik texnologiyaga qiyoslashimiz mumkin, negaki o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishni jadallashtirib boradi. Pedagogik texnologiya-bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir. Bu yerda ta'limning sifatiga ta'lim muassasasi va aniq bir fan o'qituvchisi ma'sul ekanligini hisobga olish kerak. Bunday pedagogik texnologiyalarning metodlari juda ham ko'p. O'qituvchi dars mashg'ulotini olib borayotganida mavzularni o'quvchilarning qabul qilish imkoniyatlari va yana boshqa ko'p faktorlarni albatta hisobga olishi kerak. Shunda u kutgan natijaga erishishi mumkin. Ushbu jarayonlarni hisobga olishda foydalaniladigan metod-bu klaster metodidir. Klaster – bu informasiyalarni grafik shaklda ifodalash, bu yerda asosiy mazmun birliklari ajratiladi va ular orasidagi barcha aloqalar sxema ko'rinishida joylashtiriladi. Bu o'quv materialini sistemalashga va umumlashtirishga imkon beradi. Ushbu metodni tanqidiy fikrlash metodi ham deyish mumkin. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning intellektual rivojlanishini stimullashtiruvchi pedagogik texnologiyadir.

Klaster – bu o'quvchilar bilish faoliyatining asosiy shakli hisoblanadi va ta'lim sifatini ko'tarishga imkon beradi. Bundan tashqari klaster metodidan foydalanib dars o'tilganda o'quvchilarga o'zini ko'rsatishga imkoniyat yaratiladi, savol yoki mavzu mazmuni bo'yicha o'z fikrini ayta olishga, ijodiy faoliyatlariga erkinlik beriladi. Ta'lim jarayonida klaster metodidan foydalanganda material o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda aniq va mantiqan to'g'ri taqdim etiladi. Klaster (inglizcha cluster-to'plam, bog'lama) – alohida belgilarga ega bo'lgan va mustaqil birlik sifatida qaralayotgan bir necha elementlarning yig'indisi deyish mumkin

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Klaster nazariyasining asoschisi Garvard maktabi professori Maykl Porter hisoblanadi. U o'zining

“Raqobat” (konkurensiya) nomli kitobida ta’kidlashicha, mustahkam strategiyaning borligi klasterni muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asosiy faktorlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Demak, klaster materiallarning u yoki bu tushunchalarini mazmun chegarasini ko‘rsatuvchi grafik shaklidir, tekstning mazmun birliklarini ajratish va aniq bir tartibda to‘plam ko‘rinishida grafik hujjatlashtirishdir. E’tibor qiladigan bo‘lsak, qoidasi juda ham oddiy. Quyosh sistemasi, yulduzlar, planetalar va ularning yo‘ldoshlari modeli chiziladi. Markazda yulduz – bu bizning mavzu, uning atrofida planetalar –yirik mazmunli fikrlar birliklari, ularni yulduz bilan to‘g‘ri chiziq orqali bog‘laymiz, har bir planetani o‘zining yo‘ldoshlari bilan yo‘ldoshlarini esa o‘zining planetalari bilan. Masalan: ta’lim jarayoni uchun klasterni quyidagi sxema bo‘yicha qurish mumkin. Xuddi shu usulda hamma fanlarda barcha mavzular uchun klasterlar qurish mumkin.

Klaster qurilayotganda uning markazida asosiy tushuncha –mavzu joylashtiriladi: ikkinchi darajada asosiy mazmunini ochib beruvchi tushunchalar joylashtiriladi:uchinchida esa oldingi darajalarda yodga olingan tushunchalarning bo‘laklarga bo‘linishi ketadi.Yana bir muhim jihati klasterda o‘zining tahlil qiladigan metodlari ham mavjud:

1. To‘plamlar metodi (aglomerativ) – klasterlash jarayoni alohida ob’jektga taaluqli juda ko‘p bir elementli klasterlardan boshlanadi va bitta katta klaster olish bilan yakunlanadi.

2. Divizim metodlari – bu yerda ko‘p ob’yektlar birlamchi bitta klasterni namoyish etadi,undan so‘ng bo‘linish sifatini qoniqtiradigan bir necha klasterlarga bo‘linadi.

Ushbu metodlar yordamida tayyorlangan barcha klasterlarimizni tahlil qilish imkoniga ega bo‘lamiz. Yuqorida aytganimizdek, klaster bu pedagogik metod bo‘lib, o‘quvchilarimizni o‘rganayotgan mavzulari bilan har tomonlama aloqasini va munosabatini o‘rnatish layoqatini va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu yerda tanqidiy fikrlash xususiyatlarining uchta bosqichini ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Chaqiruv
2. Fikrlash
3. Refleksiya

Birinchi bosqichda hamma ishtirokchilarning jarayonga jalb etilishi faollashtiriladi. Bu bosqichning maqsadi mavzu bo‘yicha barcha bilimlarni ko‘rsatish va yig‘ish hisoblanadi. Yana masalaning qo‘yilishi shakllantiriladi, o‘quvchilar mavzu bo‘yicha bor bilimlarini qayd etadilar va aytadilar. Mavzuni o‘rgangunga qadar o‘quvchilarning bilish faoliyatini yuzaga chiqarib, stimullashtirib boradi.

Ikkinchi bosqichda ma’lumotlar bilan ishlash, tekstni o‘qish, o‘ylash va olingan faktlarni analiz qilish tashkil etiladi.

Uchinchi bosqichda ijodiy faoliyat natijasida olingan bilimlar qayta ishlanadi va kerakli xulosalar chiqariladi. Demak bu yerda o‘quvchilar o‘zlarida bor barcha ma’lumotlarni qayd etadilar. Dars jarayonida sxemaga yangi ko‘rsatmalar, fikrlar

qo'shiladi. Bular o'quvchilarda eng asosiylarini ajratish uchun ko'nikmalarni rivojlantirish, bashorat qilish, to'ldirish va tahlil qilishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Bugungi kunda jamiyatda yosh avlodga yangicha bilim berish jarayonida tub o'zgarishlar amalga oshirilmogda. Ma'lumki, XXI asr fan, ta'lim va texnologiyaning rivojlangan asri. Shuni inobatga olgan holda, umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmogda. "Bolalarni tayyor formulalar bilan xafa qilmang, formulalar – bo'shliqdir; ularni o'zaro bog'lovchi iplari ko'rinib turgan rasmlar va obrazlar bilan boyiting. Bolalarni faktlarning og'ir yuki bilan charchatmang, ularga faktlarni qidirib topish usullari va yo'llarini o'rgating. Ularga eng asosiysi foyda deb o'rgatmang. Asosiysi insonda insoniylikni tarbiyalashdir", – deb ta'kidlaydi fransuz yozuvchisi Antuan de Sent-Ekzyuperi. Shuning uchun, zamonaviy o'qituvchi o'quvchiga nafaqat ilm asoslaridan axborot berishi, balki uni dunyo axboroti, raqobati sharoitiga moslashib yangi davr kashfiyotlari bilan tanishib borishida qo'llab-quvvatlashi zarur. Ushbu maqsadga erishish uchun o'qituvchining tafakkuri, bilimi va dunyoqarashi jamiyatdagi o'zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik o'zgarishlarga jadal moslashishi va keng dunyoqarashga ega bo'lishi zarur. Shubhasiz, o'z fani doirasidagina faoliyat yuritgan o'qituvchi ta'lim va tarbiyada yuqori marralarga erisha olmaydi. Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti mutaxassisleri aynan mana shunday talablarning bugungi kun ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligini inobatga olgan holda, aksariyat xorijiy davlatlarda ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash hamda monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ayrim ilg'or tajribalarni o'rganib chiqdi.

Xususan, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun; Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun; The Programme for International Student Assessment (PISA) – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun; The Teaching and Learning International Survey (TALIS) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishda mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmogda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Dars jarayonida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning elementlari o'quvchilarning fikrlash qobiliyati va lug'aviy boyliklarini rivojlantirib, izlanish, bilimlarni mustaqil egallashiga sharoit yaratib, ta'lim tarbiyani o'quvchilarning

hayotida eng kerakli ko'nikmalar bilan malakasini oshirishni nazarda tutadi. An'anaviy o'qitish usullari yod olish, esda saqlashga yo'naltirilgan bo'lsa, no'anaviy o'qitish metodlari o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan. "Tanqidiy fikrlash", "Sinkveyn", "Klaster", "Idrok xaritasi", "Baliq skeleti", "Venn diagrammasi", "Assesment", "Aprobatsiya" va hokazo texnologiyalar, metodlar mavzu va o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos holda qo'llanilsa, o'qish va yozish hamda fikrlash qobiliyati bilan birga funksional savodxonligi ham rivojlanib boradi. Hozirgi ta'lim jarayonida samarali va ko'p qo'llanilib kelayotgan interfaol metodlarning biri "Blum taksonomiyasi"dir. Mazkur taksonomiya maqsadining asosiy kategoriyalari:

- bilish;
- tushunish;
- qo'llash;
- tahlil qilish;
- sintez;
- baholash.

O'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va baholash turlaridan biri bo'lgan testlar ham Blum taksonomiyasi asosida tuzilsa, aqliy operatsiyalar bajarish orqali funksional savodxonlikning rivojlanishiga asos bo'ladi. Rivojlangan davlatlarda fanlardan adaptiv testlar tuzish dasturlari (My test, Ispring) yaratilgan bo'lib, ular nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchilarning ham o'z ustida ishlashini taqozo etadi. Bu dasturlar asosida tuzilgan test topshiriqlar qiyinlik darajasi reproduktiv (30%), produktiv (30%), qisman izlanish (20%) va kreativ test topshiriqlari (20%) shaklida yaratiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Ta'kidlash joizki, o'quvchining bilim darajasi rivojlanishi bo'yicha faoliyatning mazmuni qaysi yondashuvda bo'lishidan qat'iy nazar, uning yosh xususiyatlariga hamda kelgusi rivojlanishini ta'minlovchi tayyorgarlikka qo'yiladigan talablarga mos bo'lishi; zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini inobatga olishi; ularni o'zgartirish yo'llarini ko'zda tutishi lozim. Ish shakllari va usullari dunyoni o'yin asosida o'zlashtirishning insonparvarlik g'oyalari amalga oshirish, jamoatchilik va oilaviy tarbiyaning hamohang uyg'unlashuvini ta'minlash zaruriyati bilan belgilanadi hamda kattalarning bolalar bilan birgalikda ular faoliyatini tashkil etishi davomida shaxsiy-yo'naltirilgan munosabatlarga kirishish jarayoni ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ziyomammedov B. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma -T.: Turon-Iqbol, 2006.-112 b.
2. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. T.: Sharq, 2000.
3. Zunnunov A., U.Mahkamov. Didaktika. T.: Sharq, 2006. – 125 b.
4. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. 1 qism. Pedagogika nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.G' M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. "Iqtisod-moliya", 2007.-380 b.

5. Tursunov I.Y., Nishonaliev O'.N. Pedagogika kursi.-T.: O'qituvchi, 1997.
6. Xarlamov I.F. Pedagogika – M.: Gardariki, 2003.
7. G'aybullaev N., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma.-T.: 2005.-176 b.
8. FTAI Jild: 02 | Nashr: 02 | Yanvar-2021
9. O'zbek pedagogikasi tarixi. Tuzuvchi muallif, prof. A. Zunnunov. - T.: O'qituvchi, 1997.- 512 b.
10. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. II qism. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.-304 b.
11. Xoshimov K. va boshqalar. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1995. -B 137.
12. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (so'z boshi muallifi B.Tuxliev). — T.: Yulduzcha.